



## XXI ASRDA SIYOSIY JARAYONLAR

---

*Bobojonov Umidjon Ollabergan o'g'li*

*Jahon tillari xalqaro jurnalistika fakulteti 3-kurs talabasi*

### ANNOTATSIYA

Hozirda dunyo hamjamiyati oxirgi 150 yillikda yuz bergan o'zgarishlar va voqealardan xulosa olgan holda yangi globallashuv tushunchasi ortida insoniyat uchun eng maqbul yechimlarga birlashish orqali erishishga tayyor. Zero XX asr oxiri – XXI asr boshidagi siyosiy tub burilishlar va yangi Xalqaro Munosabatlar sub'yektlari vujudga kelishi zaminida davlatlar global miqyosida o'zaro aloqalarni ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatidan kuchaytirish yo'lini istiqbolli deb bildi. Mazkur maqola bugungi kunning terminologiyasida kengayayotgan jarayon globallashuv tushunchasi haqida batafsil izlanishlar natijalarini taqdim etadi hamda ushbu jarayonning Xalqaro munosabatlar tizimiga qanchalik ijobiy va salbiy ta'siri haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Muallif o'zining izlanishlari va ushbu sohadagi bilimlariga tayangan holda berilgan siyosiy tahlillarini taklif etadi. Mazkur maqola xulosa qiladiki, globallashuv jarayoni jahon siyosiy va iqtisodiy tizimini minimum yo'qotishlar orqali umumiyashtirish va shu bilan birga davlatlar manfaatini umummanfaatga yo'naltirishni ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** *globallashuv, suverenitet, Xalqaro munosabatlar, milliy manfaatlar, iqtisodiyot, Umumiy sivilizatsiya.*

### KIRISH

Globallashuv o'z nomiga ko'ra ham “global”, ya'ni mazkur jarayon butun dunyoni o'z ichiga oladi va jarayonda yuz beradigan har bir holat jahon hamjamiyati uchun muhimdir. Bu tushuncha ilk bora tilga tushganda uning ahamiyatini iqtisodiyot bilan bog'lashgan va amalda ham iqtisodiy globallashuv ommalashdi, qayd etish kerakki globallashuv siyosat va madaniyatni cheklab o'tmadi.

1648-yili Myunster va Osnabryuk shaharlarida “o'ttiz yillik urush” nihoyasini bayon qilgan tinchlik sulhi imzolandi va sanab o'tiladigan muhimlik darajasidagi o'zgarishlar qatorida sulh birinchi o'rinda emasdi, chunki bu tinchlik shartnomasi yangi dunyo tizimiga asos soldi.

Dinlar to'qnashuvi bilan boshlangan urush diniy erkinlik va davlatlar suvereniteti asosiy omil bo'lgan Xalqaro munosabatlar tizimiga o'tish bilan tugaydi. Aynan shu davrdan boshlab Xalqaro Munosabatlarda cheksiz vakolatli monarxlar



o'rnini suveren davlatlar egallaydi, jahon siyosatida davlatlar maqomi tenglanadi. Globallashuv esa aynan suvereniteti mustahkam davlatlar o'rtasida o'z samarasini maksimal foyda orqali ko'rsatadi. Bugungi rivojlanayotgan dunyoda globallashuvning ta'siri va ahamiyati qanday?

Manfaat insonni harakatga keltiradi, tabiiyki inson davlat va hukumat uchun asosiy omil, milliy manfaatlar esa davlatlarni harakatga keltiradi va Xalqaro munosabatlar sub'yektlari o'z milliy manfaatlarini himoya qilish asosida boshqa manfaatlar bilan birlashishi va umumiy manfaat hosil qilishi mumkin.

Globallashuv davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalarda manfaatlarining umumiy lashishi hisoblanadi va mazkur jarayonda ishtirokchi davlatlar imkon qadar ehtiyotkor bo'lishlari va kuchli suverenitetga ega bo'lishlari zarur. Katta talofotlar keltirgan ikkala jahon urushi va dunyoni ikkita siyosiy lagerga bo'lgan ikki "qo'chqor" davlatlardan charchagan dunyo inqirozlarni yengib o'tishni globallashuv orqali yechishga qaror qildi.

### ASOSIY QISM

Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Margaret Tetcher globallashuv ahamiyati haqida mazkur fikrlarni bildiradi: "Iqtisodiy globallashuv juda katta kuchdir. Bu, boshqa narsalar qatorida, juda foydali." Tarixdan ma'lumki "Tetcher davri" Buyuk Britaniya tarixida muhim o'rin tutadi, chunki bu davrda Tetcher iqtisodga davlat aralashuvini kamaytiradi, Yevropadagi eng ko'p ish o'rinlari yaratishi orqali mazkur davrdagi ishsizlik muammosini yechadi, umuman iqtisodiyotda chuqur tizim o'zgarishlari yuz beradi.

Globallashuv asnosida keyinchalik, Yevropa Ittifoqi tuzuldi va butun dunyoga regionallashuv misolida globallashuv qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatdi. Turli xil millatlar, tillar va madaniyatga ega davlatlar umumiy hududni vujudga keltirishdi. R.Robertsonning ta'kidlashiga ko'ra, "Globallashuv – bu dunyoning "siqilishi" va uning barcha qismlarining o'zaro bog'liqligining kuchayishi, bu dunyoning yaxlitligi, birligi to'g'risida tobora keng tarqalgan tushuncha bilan bog'liqdir".

Albatta, globallashuv jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlatlar belgilangan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Afrikadagi iqtisodiy ko'rsatkichi past davlatlarning iqtisodiy integratsiya orqali muammoni bartaraf etishga urinishi muvaffaqiyatsiz yakun topadi va bu omadsiz yakun topgan globallashuv jarayonining bir nechta misollaridan biridir. Davlatlar birlashuvida avvalo inson omili muhim rol o'ynaydi, sababi xalq davlatni tashkil etuvchi oilalar yig'indisidir va ular ma'lum irq, din va elatga mansub bo'lishi mumkin.



Davlatlar globallashuv jarayonida esa bu madaniy va ijtimoiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Har bir mintaqada hosil bo'ladigan integratsiyalarga uning ishtirokchilaridan biri boshqaruvchi maqomini olishni xohlaydi va shu joyda liberalizm va realizm to'qnashadi. Hozirgi kunda globallashuv ikkala jarayon orqali harakat qiladi: davlatlar o'rtasida yagona bozor vujudga kelishi va investitsiyalarning erkin harakati va demokratiya kabi siyosiy ideologik qarashning davlatlarni qamrab olishi. Iqtisodiy globallashuv jarayonida davlatlar milliy iqtisodini riskka qo'yadi va bu tabiiyki ularning suverenitetiga ham to'gridan to'g'ri ta'sir etadi.

Ammo davlatlar shunga rozi holatda jarayonga kirishishadi. Globallashuv qator salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin: ekologik muhitning buzilishi, transmilliy kompaniyalar o'rtasidagi juda yuqori raqobat, ishchi kuchining rivojlangan davlatlarga migratsiyasi oqibatida rivojlanayotgan yoki o'tish jarayonidagi davlatlarda ishchi kuchi yetishmasligi, rivojlangan davlatlarda esa ishsizlik darajasi oshishi, xalqlarning tarixan shakllanib kelgan madaniy qiyofasi yagona umumiy madaniyat ideologiyasi oqibatida buzilishi.

Globallashuvning bunday salbiy oqibatlariga qaramasdan mazkur jarayon xalqlarning birlashuviga va jahonda yuz berayotgan muammolarga birgalikda yechim izlashini ta'minlaydi, bunga misol qilib "Covid 19" koronavirusi davrida davlatlarning bir-birga ko'rsatgan yordami va jahon hamjamiyati birgalikda kasallikka qarshi kurashganini keltirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki global iqlim isishiga qarshi davlatlar birgalikda dasturlar olib borishi va iloji boricha davlatlar soni ko'payishiga harakat qilinishi ham yana bir misol.

Globallashuv ko'proq iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lsa ham ko'plab yechimlar ortida siyosat yotishini unutmashimiz kerak. Davlatning klassik ta'rifida u suveren, yahlitligi va legitimligi aytiladi. Globallashuv jarayoni esa bu uchala faktorni ham so'roq ostiga qo'yishi mumkin. Chunki globallashuvning siyosatdagi birinchi bosqichi va sharti bu – detsentralizatsiya, ya'ni hukumatlarning bir qismini boshqarish huquqini oluvchi tashkilotlar tuzilishi. Bu esa davlatning suvereniteti yo'qotilish xavfidan darak beradi.

### XULOSA

“Biz globallashuv yo'lagida yurishda davom etishimiz kerak. Globalizatsiya yaxshi... Savdo to'xtaganda, urush boshlanadi”.

Zero, aynan globallashuv jarayoni orqali davlatlar ko'p tomonlama iqtisodiy aloqalar olib borishi kuchaydi va bu o'zaro aloqalarni birmuncha yumshatgan holatlar ham uchradi. “Umumiy sivilizatsiya” o'z ichiga madaniy uzviylikni va umuminsoniy qadriyatlarni eslatib turadi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Robertson.R Globalization: Social theory and global culture. – London: SAGE publications, 1992. – 224 p.
2. A.Yuryevich “Глобализация как фактор трансформации мировой политической системы”
3. P.Smirnov “Глобализация и основные проблемы человечества”
4. S.Hantington “Sivilizatsiyalar to’qnashuvi”, 35 p.